TARIX DARSLARINI O‘QITISHDA MIRZACHO‘L VOHASI TARIXINI O‘RGANISHDA MATBUOT MATERIALLARI VA ARXIV HUJJATLARINING O‘RNI.

Xolnazarova Aziza Mamatmuratovna, Guliston shahridagi 11-maktab o‘qituvchisi.
e-mail: xolnazarovadildora@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix darslarida mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda matbuot materiallari va arxiv hujjatlarining o‘rni borasida so‘z yuritiladi. Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda matbuot materiallari va arxiv hujjatlarining o‘rni va ahamiyati manbalar tahliliga asoslanib belgilangan. Shuningdek, tarix darslarida XIX asr oxiri – XX asr boshlari Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda manbalarni 3 guruhga ajratib o‘rganish borasidagi fikrlar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Mirzacho‘l vohasi, matbuot materiallari, arxiv hujjatlari, manbalar, davriy matbuot;

РОЛЬ МАТЕРИАЛОВ ПРЕССЫ И АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ОАЗИСА МИРРАЗАЧОЛЬ НА УРОКАХ ИСТОРИИ.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль материалов прессы и архивных документов в изучении истории Мирзачольского оазиса на уроках истории. На основе анализа источников определяется роль и значение материалов прессы и архивных документов в изучении истории Мирзачольского оазиса. Также выдвигаются идеи по изучению источников при изучении истории Мирзачольского оазиса на уроках истории в конце XIX – начале XX вв., разделяя их на 3 группы.

Ключевые слова: Мирзачольский оазис, материалы прессы, архивные документы, источники, периодическая печать.

THE ROLE OF PRESS MATERIALS AND ARCHIVE DOCUMENTS IN STUDYING THE HISTORY OF THE MIRRAZACHOL OASIS IN TEACHING HISTORY LESSONS.

Abstract. This article discusses the role of press materials and archival documents in studying the history of the Mirzachol oasis in history lessons. The role and significance of press materials and archival documents in studying the history of the Mirzachol oasis is determined based on the analysis of sources. Also, ideas are put forward on the study of sources in studying the history of the Mirzachol oasis in history lessons in the late 19th and early 20th centuries, dividing them into 3 groups.

Keywords: Mirzachol oasis, press materials, archival documents, sources, periodicals.

Kirish. Bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekistonda qadimiy an’analar va milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashga, shuningdek, jamiyatimizninng ijtimoiy - siyosiy jarayonlarini xolisona tahlil qilish orqali tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishga

va eski mustabid tuzum asoratlarini yangicha tahlil qilishga doir ko‘p ishlar qilinmoqda. Ammo o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishini haqqoniy yoritib berish uchun hali ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi lozim.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining o‘z ajdodlari tomonidan yaratilgan tarixiy merosni tiklash, saqlash, o‘rganish, bugungi hamda kelajak avlodning ma’naviy mulkiga aylantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tomonidan 2017-yil 24-mayda imzolangan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi qaror bu boradagi muhim vazifalarni belgilab berdi. Vatanimiz tarixini chuqurroq o‘rganishda nafaqat qo‘lyozmalar, arxiv hujjatlari, balki o‘sha davr matbuoti sahifalaridan ham juda muhim ma‘lumotlarni olish mumkin.

Asosiy qism. Tarix darslarida Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda matbuot materiallari va arxiv hujjatlarining o‘rni va ahamiyatini manbalar tahliliga asoslanib belgilash mumkin. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda manbalarni quyidagi 3 guruhga ajratish mumkin: arxiv hujjatlari; davriy matbuot nashrlari va rasmiy hisobot va statistik ma’lumotlar.

Birinchi guruhga kiritilgan manbalar O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O’z MA) ning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga oid I-1, 7, 16, 17, 18, 21, 33, 36, 40, 69, 87, 113-fondlari hujjatlaridir. Bu arxiv hujjatlari mustamlaka ma’muriyatining vohada yer va suvdan foydalanishdagi o‘zgarishlar tizimini ko‘rsatib beradi. Chunki aynan ushbu turdagi manbalarda mustamlaka ma’muriyati amaldorlari Turkistonda, shu jumladan Mirzacho‘lda yuritgan siyosati to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirishgan.

O’zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA)da saqlanayotgan bir qator jamg‘armalar o‘rganilib, tahlil qilindi. Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivining “Turkiston general-gubernatorligi kantselyariyasi” (f.I-1), “Samarqand viloyati boshqarmasi” (f.I-18), “Jizzax uezdi boshlig’i boshqarmasi” (f.I-21) kabi fondlardagi materiallar muhim manbaviy asos bo‘lib xizmat qildi. Sirdaryo va Jizzax viloyati arxivlarida Mirzacho‘lning sovet davri tarixiga tegishli hujjatlar mavjud bo‘lib, tadqiq qilinayotgan davrga tegishli hujjatlar yo‘qligi sababli mazkur arxiv fondlaridan magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash jarayonida foydalanilmadi. Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi, ko‘chirish harakati, vohada tashkil topgan rus qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga tegishli materiallar O‘zMAning 1, 7, 16, 18, 21, 33, 269-fondlaridan olingan. Knyaz N. K. Romanov ishlari boshqarmasiga tegishli 40-fond materiallaridan Mirzacho‘lda Rossiya imperiyasining olib borgan mustamlakachilik siyosatiga oid ma’lumotlar batafsil ko‘rsatib o‘tilgan.

Ikkinchi guruhga oid manbalar qatoriga asosan 1870-yildan 1917-yilgacha nashr etilgan davriy matbuotdan olingan materiallar kiradi.

Turkistonda davriy matbuot uch guruhga gazetalar, jurnallar, ilmiy jamiyatlarning nashrlariga bo‘lingan. Gazeta va jurnallar materiallarni etkazib berish usuli ko‘ra faqr qilgan. Jumladan, gazetada kichik hajmdagi ma’lumotlar nashr qilingan. Oyda bir nashr qilinadigan jurnallarda esa, umumlashtiruvchi ma’lumotlar, muammoviy va tahliliy xarakterga ega bo’lgan maqolalar chop etilgan. Turkistonda 1870 – 1890 yillarda faqatgina rasmiy gazetalar chop etilgan. XIX asrning 90-yillardan boshlab esa xususiy gazetalar chop etila boshladi. Demokratik yo’nalishdagi o’zbek milliy matbuotining namunalari esa 1906-1907 yillarda asos solindi. Turkistonda chop etilgan jurnallarda ilmning hamma sohalariga oid ma’lumotlar aks etgan.

Ayniqsa, O’rta Osiyoning tarixi, arxeologiya, geografiya, topografiya, statistika va etnografiyasiga oid ilmiy maqolalar chop etilgan. Shuningdek mahalliy bibliografiya va e’lonlar nashr etilar edi. Jurnallardagi materiallardan mahalliy aholining turmush tarzi, moddiy ahvoli, madaniy hayoti, ijtimoiy holati haqida bilib

olish mumkin edi. Gazetaning o‘ziga xos xususiyati voqea va jarayonlarni yoritishdagi tezkorligi hozirjavobligidadir. Darhaqiqat gazeta va adabiyot har bir xalqni o‘ziga xos shakllantiruvchi eng asosiy ko‘rsatgich, sifat, xususiyatidir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va tadqiqot metologiyasi. O‘zbek davriy matbuotining tasnifi qoidalariga ko‘ra, Turkiston matbuotini quyidagicha guruhlarga bo‘lish mumkin. Xususan, birinchi guruhga davriylik bo‘yicha Turkiston matbuotida haftasiga bir yoki bir necha marotaba hamda har kuni chop etiladigan gazetalarni kiritish o‘rinlidir. Jumladan, Turkistonda muntazam va uzoq vaqt nashr etilgan gazetalar “Turkestanskiy vedomosti “va “Turkuston viloyatining gazetasi“ edi. Ikkinchi guruhga hududiy belgisiga ko‘ra ajratish mumkin. Masalan, Turkiston matbuoti viloyat va uezdda chop etiladigan gazetalardan iborat bo‘lgan. Asosan Toshkent shahrida nashr etilgan, keyinchalik Samarqand, Toshkent,Qo‘qon, Andijon, Buxoro, Farg‘ona va boshqa shaharlarda nashr qilingan.Uchinchi guruh nashrlarning tili bo‘yicha tasniflangan. Xususan, Turkiston matbuotida o‘zbek, rus, fors va qozoq tillarida gazeta va jurnallar chiqarilgan. To‘rtinchi guruhga esa nashr turi bo‘yicha kiritish mumkin. Ya’ni gazeta va jurnallar rasmiy va xususiy bo‘lgan. Masalan, 1870-1917-yil fevraligacha hududda Turkiston general-gubernatorligining rasmiy organi bo‘lgan, “Turkestanskiy vedomosti “va “Turkiston viloyatining gazeti uzluksiz nashr etilgan. Turkiston o‘lkasida milliy gazetalar ham ko‘plab chop etilgan. Shu o‘rinda “Taraqqiy“ gazetasi 1906-yil 27-iyundan 1906-yil 20 avgustga qadar faoliyat yuritdi. U haqiqiy ma’noda taraqqiyparvar mahalliy xalq manfatini ifoda etgan milliy gazeta edi. “Samarqand“ gazetasi Samarqand ma’rifatchilarining bosh gazetasi bo‘lib Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’sul muharirligi ostida 1913-yil apreldan chiqa boshlagan. Turkiston o‘lkasi matbuoti tsenzuradan xoli bo‘lmagan. Hukumat senzura masalasiga jiddiy yondashgan, gazeta nashrlaridagi axborotlarni nazorat qilishga uringan. O‘lkadagi gazetalar orasida faqatgina rasmiy nashrlar senzuradan ozod bo’lgan. Lekin, xususiy gazetalar doimo ta’qib va nazorat ostida edi. Bundan tashqari, yashirin ravishda chiqqan gazetalar ham bo‘lib, bular mavjud siyosiy partiyalarning matbuot idoralari nashrlari edi. Mazmun va yo‘nalishi jihatidan Turkistondagi gazetalari asosan adabiy–ijtimoiy va siyosiy yo‘nalishda faoliyat olib borgan. O’lka hayotida doimo muhim ahamiyat kasb etgan.

Rossiya imperiyasi Turkistondagi yer resurslaridan o‘zlarining iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qildi. Shu sababli davriy matbuot sahifalarida agrar sohaga doir maqolalar muntazam ravishda chop etilgan [2]. Tadqiqot davomida XIX asr oxiri – XX asr boshida chop etilgan davriy matbuot materiallaridan unumli foydalanishga harakat qilindi. Bu guruhga doir manbalarni o‘z navbatida yana ikki qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismga mustamlaka ma’muriyati ixtiyorida bo‘lgan gazeta va jurnallar kirsa, ikkinchi qism mahalliy taraqqiyparvarlar tomonidan chop etilgan davriy matbuot materiallarini o‘z ichiga oladi. Birinchi guruhdagi materiallar aksariyat holatlarda qishloq xo‘jaligi mutaxasislari tomonidan yozilgan. Shuningdek, ularda Mirzacho‘ldagi kanallar ochilishi va natijada vujudga kelgan yangi yerlarning o‘zlashtirilishi to‘g‘risida ma’lumotlar tez-tez chop etilib turgan. Xususan, “Turkestanskie vedomosti” gazetasi, “Turkestanskoe selskoe xozyaystvo” jurnali hamda “Turkestanskiy sbornik” to’plamidagi mavzuga oid materiallar o’rganib chiqildi hamda mavzuning mohiyatini ochib bera oladigan ma’lumotlar dissertatsiyaga kiritildi.

Bu davrda Turkiston jadidlari va taraqqiyparvarlari tomonidan chop etilgan ilk mahalliy gazetalarda Turkistonni va jamiyatni rivojlantirish uchun tanqidiy maqolalar chop etilgan. Bunday holat agrar sohaga oid materiallarda ham ko‘zga tashlanib turadi. Jumladan, mahalliy ziyolilar Turkistondagi dehqonchilik ahvoli yildan-yilga pasayib borayotganligi aytib, ushbu sohani rivojlantirishning yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi. “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg‘ona” gazetalari shu turdagi maqolalarni chop etgan davriy matbuot materiallari hisoblanadi.

Jumladan, Rossiya imperiyasi ma’muriyatining rasmiy nashrlari bo‘lgan «Turkestanskie vedomosti», «Tashkentskiy kurer», «Sredneaziatskaya jizn», «Russkiy Turkestan» gazetalari va «Turkestanskoe selskoe xozyaystvo» jurnalida [3] chop etilgan voha tarixiga oid qiziqarli maqola va kichik xabarlar, shuningdek «Turkestanskiy sbornik» to‘plamidan o‘rin olgan turli davriy nashrlar materiallari sinchiklab ko‘rilib, ulardan Mirzacho‘lda tashkil topgan qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ko‘chib kelgan aholining mahalliy aholi bilan munosabatlari masalalariga tegishli ma’lumotlar olindi.

Xususan, «Turkestanskoe selskoe xozyaystvo» jurnalida nashr etilgan I. Kashkin, K. N. Vladimirov, A. Miroshnichenko, M. M. Bushuev maqolalarida Mirzacho‘l vohasi tarixiga oid turli mazmundagi ma’lumotlar keltirilgan. I. Kashkin Turkiston irrigatsiyasiga bag‘ishlangan ishida Hind, Ganga vodiylari va Turkistonda amalga oshirilgan o‘zlashtirish ishlarini taqqoslagan, jumladan 1907-yilgacha Mirzacho‘lni o‘zlashtirish to‘g‘risidagi turli loyihalar xususida o‘z fikrlarini bildirgan. Ammo, bu ishlarni ko‘chib kelgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligiga to‘xtalmagan.

K. N. Vladimirov Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi uchun nafaqat strategik, balki xalq xo‘jaligi jihatidan ham muhim ahamiyatga ega hudud ekanligini ta’kidlab, o‘lkada dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlari, ko‘chib kelgan aholi bilan mahalliy aholi o‘rtasida turli masalalardagi munosabatlariga o‘z fikrlarini bildirgan. Jumladan, Mirzacho‘l vohasida istiqomat qilayotgan mahalliy va ko‘chib kelgan aholining xo‘jalik yuritishlarini o‘z kuzatuvlari natijasida qiyosiy tahlil qilib bergan. Shuningdek, muallif Sirdaryo bo‘ylab Bekoboddan Chinozgacha bo‘lgan masofada joylashgan rus qishloqlari haqida ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tgan [4].

A. Miroshnichenkoning «Turkiston qishloq xo‘jaligi» jurnalida Turkistonda, jumladan Mirzacho‘lda tashkil etilgan rus qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga doir bir necha maqolalari nashr etilgan bo‘lib, muallif bu ishlarida Mirzacho‘lda amalga oshirilgan sug‘orish ishlarining ahvoliga baho berib, bu yerdagi barcha rus qishloqlari aholisi suvdan foydalanishda teng imkoniyatiga ega emasligi, xususan «Nijniy Volinskiy» qishlog‘i aholisining suvdan foydalanishda mavjud bo‘lgan muammolariga to‘xtalgan. A. Miroshnichenko nafaqat o‘zlashtirish va sug‘orish masalalariga, balki ko‘chib kelganlarning ma’naviy qiyofasi, mahalliy muhitga moslashuvi jarayonida ro‘y bergan ayrim salbiy holatlarga ham e’tibor qaratgan. Jumladan, ko‘chib kelgan aholining ichkilikka mukkasidan ketishi ularning ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan tashvishlanib, bu holatni davriy nashrlarda doimiy ravishda yoritishga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlagan [5].

Turkistonni va xususan Mirzacho‘lni tekshirgan rus olimlari P. Semenov-Tyanshanskiy, V. Massalskiy, N. Ulyanov, N. Ivanov, Aminov va boshqalarning ayrim ishlari ham “Turkestanskie vedomosti” gazetasi sahifalarida e’lon qilingan.

Rossiya imperiyasi Turkistondagi yer resurslaridan o‘zlarining iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qildi. Shu sababli davriy matbuot sahifalarida agrar sohaga doir maqolalar muntazam ravishda chop etilgan [6].Bu guruhga doir manbalarni o‘z navbatida yana ikki qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismga mustamlaka ma’muriyati ixtiyorida bo‘lgan gazeta va jurnallar kirsa, ikkinchi qism mahalliy taraqqiyparvarlar tomonidan chop etilgan davriy matbuot materiallarini o‘z ichiga oladi. Birinchi guruhdagi materiallar aksariyat holatlarda qishloq xo‘jaligi mutaxasislari tomonidan yozilgan. Shuningdek, ularda Mirzacho‘ldagi kanallar ochilishi va natijada vujudga kelgan yangi erlarning o‘zlashtirilishi to‘g‘risida ma’lumotlar tez-tez chop etilib turgan. Xususan, “Turkestanskie vedomosti” gazetasi, “Turkestanskoe selskoe xozyaystvo” jurnali hamda “Turkestanskiy sbornik” to‘plamidagi mavzuga oid materiallar o‘rganib

chiqildi hamda mavzuning mohiyatini ochib bera oladigan ma’lumotlar magistrlik dissertatsiyasiga kiritildi.

Tahlil va natijalar. Milliy matbuot nashrlarida Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chib kelgan aholi bilan mahalliy aholi o‘rtasidagi munosabatlarga doir xabarlar berilgan, ammo bu materiallarda aynan Mirzacho‘lga ko‘chib kelgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga bevosita aloqador ma’lumotlar juda kam. Xususan, «Kengash» gazetasida Yettisuv va Turkistonning boshqa viloyatlarida mahalliy aholiga nisbatan ma’muriyat vakillari tomonidan qiliingan zo’ravonlik siyosati o‘z aksini topgan, lekin Mirzacho‘lda bunday siyosatning namoyon bo‘lganligi haqida ma’lumot berilmagan. Faqat, «Ulug‘ Turkiston» gazetasida «Golodnoy stepda zemledeliya upravleniyasi (davlat mulklari va dehqonchilik ishlari boshqarmasi idorasindan 12 ming desyatina yerni g‘alla ekmak uchun tezdan dehqonlarg‘a berilsin (bunga tayyor talabgorlar bor)» mazmunidagi xabar berilgan. Mirza Qo‘qonboy Abduxoliqzoda Samarqandiy o‘z esdaliklarida Rossiya imperiyasi Turkistonning boshqa qismlarida bo‘lgani kabi Mirzacho‘lda ham dehqonchilikka ahamiyat bermaganligini qayd etadi. Jumladan, u bu to‘g‘risida quyidagilarni aytadi: “Chor hukumati yarim asrlik istilosi davomida turkistonliklar uchun nima qilgandi? Dehqonchilik ishlarini engillashtirish va hayvonot zotini yaxshilash uchun biror ish qilindimi? Yo‘q! Hech ish qilinmadi!”[7].

Bu davrda Turkiston jadidlari va taraqqiyparvarlari tomonidan chop etilgan ilk mahalliy gazetalarda Turkistonni va jamiyatni rivojlantirish uchun tanqidiy maqolalar chop etilgan. Bunday holat agrar sohaga oid materiallarda ham ko’zga tashlanib turadi. Jumladan, mahalliy ziyolilar Turkistondagi dehqonchilik ahvoli yildan-yilga pasayib borayotganligi aytib, ushbu sohani rivojlantirishning yo’llarini ko‘rsatib o‘tadi. “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari shu turdagi maqolalarni chop etgan davriy matbuot materiallari hisoblanadi.

Bu holni tushungan mahalliy taraqqiyparvarlar aholini dehqonchilikni yuksaltirishga chaqiradi. Chunonchi, Rauf Muzaffarzoda “endi bizim dunyodan eng oxirgi nasibamiz bo‘lg‘on shul tuprog‘imizga e’tibor bermovimiz aqlsizlik… ulug‘ bir jinoyatdur... Agar bu kundan e’tiboran tuprog‘imizning qadrini bilub ziroatg‘a yopushsak, el ichida xayolimizga ham kelmagon saodatga erishmog’imiz tabiiydur”, deb yozadi. Shu sababli ushbu taraqqiyparvarlar dehqonchilik ishlariga ahamiyat berishni, suvsiz erlarga ariq qazib suv chiqarishni, erlarning unumdorligini oshirish uchun o‘g‘itlardan foydalanishni tavsiya qiladi.

Uchinchi guruhga tegishli manbalarda tadqiq etilayotgan davrda Mirzacho‘lda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlari aks ettirilgan jihatlari, mirzacho‘lda olib borilgan o‘zlashtirish va ko‘chirish siyosati, bu jarayonlarga munosabat masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. shuningdek bu manbalarda Mirzacho‘lda rus qishloqlarining paydo bo‘lishi tarixi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ko‘chib kelgan aholining muhitga moslashuv jarayonida vujudga kelgan muammolar, shuningdek, rus qishloqlari aholisining milliy va diniy tarkibi bilan bog‘liq jarayonlar yoritilgan.

O‘lkaga ko‘chirish harakatining natijalarini o‘rganish uchun yuborilgan A. A. Polovtsev Mirzacho‘ldagi Nadejdinskiy, Romanovskiy, Nikolaevskiy, Obetovanniy va Dalvarzinda tashkil topgan Sretenskiy qishloqlarini o‘rganib, faqat Sretenskiy qishlog‘i haqida batafsil ma’lumot bergan [8]. Rus agronomi P. V. Poznyakov 1898-1899 yillarda Mirzacho‘lda tashkil topgan rus qishloqlarida bo‘lib, bu qishloqlarning tashkil topish jarayoni haqida ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

1908-1909 yillarda Turkiston o‘lkasi irrigatsiyasi ahvoli, ko‘chirib keltirilgan aholining yer va suvdan foydalanish imkoniyatlari, o’lkadagi dehqonchilik va chorvachilik xo’jaliklarining umumiy ahvoliga tegishli ko’plab ma’lumotlar graf K.K.Palen boshliq taftish komissiyasi hisobotlarida keltirib o’tilgan[10]. Shuningdek, hisobotda Rossiya imperiyasini Turkistonda amalga oshirgan ko‘chirish siyosatining

ahvoli haqida tegishli ma’lumotlar berilgan, jumladan Mirzacho‘lni o‘zlashtirilishi, vohada mavjud 8 ta rus qishloqlarining ahvoli, ularning yer maydonlari, chorva mollari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. K. K. Palen o’lkaga rus aholisining ko’chirib keltirish ishiga general-ad’yutant K. P. Kaufman tomonidan asos solinganligini ta’kidlab o‘tgan.

A. V. Stanishevskiy tomonidan tayyorlangan to‘plamda Mirzacho‘lning 1867-1917-yillar oralig‘idagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tarixining turli jabhalariga doir arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari e’lon qilingan, ammo bu manbalar tahlil etilmagan, faqat Mirzacho‘l vohasi tarixining 1917-yilga qadar bo‘lgan muhim sanalarini xronologik tartibda keltirib o‘tgan.

Xulosa. Rossiya imperiyasi davrida amaldorlar yoki tashkil etilgan ekspeditsiyalar rahbarlari tomonidan yozilgan hamda to‘plam va hisobot sifatida chop etilgan materiallar ham XIX asr oxiri – XX asr boshlari Mirzacho‘l vohasining turli jabhalari aks ettiradigan manbalardan hisoblandi. Jumladan, “Samarqand viloyati obzorlari”, “Samarqand viloyati ma’lumotnomasi”, “Samarqand viloyati manzillari kalendarlari” kabi nashr etilgan manbalar hamda rus amaldorlari tomonidan tuzilgan hisobotlarni ilmiy iste’molga kiritishga harakat qilindi. Mazkur materiallar odatda har yili chop etilgan. Bundan tashqari, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho‘lning tabiati va geografik joylashuvini tadqiq etishga qaratilgan bir qancha ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi. Ushbu ekspeditsiyalarning hisobotlari hudud mahalliy aholisining turmush tarzi hamda uning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti to‘g‘risida ko‘pgina qimmatli ma’lumotlarni taqdim eta oladi. Shunday ekspeditsiyalardan biri 1911-1912-yillarda tashkil etilgan ekspeditsiyadir.

Bu manbalar XIX asr oxiri – XX asr boshlari Mirzacho‘l vohasi Mirzacho‘l vohasining ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganishda juda katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-son qarori // Xalq so‘zi. № 103 (6797), 25-may 2017-yil.
2. Shodmonova S. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida (1870-1917 yillar). – Toshkent: “Yangi nashr”, 2011. – B. 67.
3. “Туркестанское сельское хозяйство” журнали – Тошкентда 1906-йил январдан 1918-йил июнигача нашр этилган бўлиб, жами 129 та сони чоп этилган.
4. Кашкин И. Очерки ирригации Туркестана // Туркестанское сельское хозяйство. – Ташкент, 1907. № 1. – С. 6-14.
5. Владимиров К. Н. Путевые впечатления // Туркестанское сельское хозяйство. – Ташкент, 1907. № 6. – С. 458-473.
6. Мирошниченко А. Пьянство в поселках // Туркестанское сельское хозяйство. – Ташкент, 1913. № 2. – С. 174-75
7. Туркистонда тижорат ва зироат // Садои Туркистон. 1914. № 18. – С. 85
8. Половцев А. Отчет чиновника особых поручений при министре внутренних дел А. А. Половцева, командированного в 1896-1897 г.г. Для собрания сведений о положении переселенческого дела в Туркестанском крае. – Спб., 1898. – 164 с.
9. Позняков П. В. Русские поселки в Голодной степи Самаркандской области в 1898-1899 гг. / В кн. Справочная книжка Самаркандской области. – Самарканд: Товарищество, 1902. – вып. 7. 192-с.
10. Пален К. К. Переселенческое дъло въ Туркестанъ. – Спб.: Сенатская типографія, 1910. 430-с.